



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIK
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

O'SIMLIKSHUNOSLIK KAFEDRASI

EKOLOGIYA FANIDAN

REFERAT

Mavzu: Tabiiy resurslar va muhitning ifloslanishi

Bajardi: 202 – guruh

talabasi Jo'rayev S.

Tekshirdi: Rahimov A.

SAMARQAND – 2015

Tabiiy resurslar va muhitning ifloslanishi

Ishlab chiqarish yoki boshqa maqsadlarda inson foydalangan, foydalanayotgan va kelgusida foydalanishi mumkin bo'lgan tabiatning tarkibiy qismlariga tabiiy boyliklar (resurslar) deb ataladi. Resurs atamasi fransuzchadan olingan bo'lib boylik degan ma'noni anglatadi va yashash vositasi bo'lib hisoblanadi.

Tabiiy resurs – tabiiy kelib chiqqan o'simlik va hayvonot dunyosi, yer va yer osti boyliklari, atmosfera havosi va suv ob'ektlaridan kishilarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlatilayotgan yoki shu maqsadlarga mo'ljallangan tabiiy ob'ekt. Ular fanda va amaliyotda floristik, faunistik, ekologik, mineral, gidrologik, yer va o'rmon resurslari deb ataladi. Tabiat resurslariga atmosfera, suv, o'simlik, hayvon, tuproq, er osti boyliklar, energetik va boshqa resurslar kiradi.

Tabiiy ob'ekt – kishilarning ishtirokisiz, tabiat qonuniyatlari asosida yuzaga kelgan va rivojlanadigan tabiiy muhit elementi. Unga– yer, suv, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi kiradi. Yer yuzasining biosfera qobig'ida tirik organizmlarning yashashi uchun zarur bo'lgan barcha tabiiy ob'ektlar mavjuddir.

Tabiiy resurslar qanday hosil bo'ladi?

Ma'lumki, tabiatda doimo modda va energiya almashinuvi sodir bo'lib turadi. Bu jarayon tabiiy holatda yopiq zanjir, davriylik (sikl) shaklida amalga oshadi. Misol qilib, yer yuzidan qancha miqdorda suv bug'lansa shuncha suv yomg'ir, qor shaklida yerga tushadi. Odatda tabiiy davriylik (sikl) jarayonida chiqindilar tashqi muhitga chiqarilmaydi va tabiatda yashiringan holda saqlanadi. Masalan, neft, gaz, toshko'mir, torf qachonlardir bo'lib o'tgan tabiiy jarayonlarning chiqindisi bo'lib hisoblanadi.

Tabiiy modda almashinish davriyligi (sikli) ikkita: katta (geologik) va kichik (biologik) modda almashinish davriyligiga bo'linadi.

Katta, geologik davriylik (sikl) davomida tog' jinslari shamol va suv ta'sirida nuraydi, suvda eruvchi mineral oziqalar shakligacha parchalanadi va suv oqimi bilan okeanlarga olib kelinadi va cho'kma jinslarni hosil qiladi. Qator jarayonlar (tektonik harakat, cho'kish, ko'tarilma va h.k) natijasida cho'kma jinslar yana quruqlikka chiqib qoladi va jarayon takrorlanadi.

Kichik, biologik davriylik (sikl) geologik davriylikning tarkibiy qismi bo'lib faqat biogeosenozda o'tadi. Tuproqdagi mineral moddalar, suv, ko'mir o'simliklarda organik moddalar shaklida to'planadi. Ularni konsumentlar oziqa sifatida iste'mol qiladi. Parchalanish mahsulotlari parchalanadi, tuproq va suvga qaytariladi. Ular o'simliklar yordamida yana modda almashinish doirasiga jalb qilinadi.

Biologik yoki bioximik davriylik geologik davriylikdan (million, milliard yil) farq qilib, nisbatan qisqa muddatda o'tadi. Masalan, ko'mirni aylanish davriyligi 8 yil, azotniki - 110 yil, kislorodniki - 2500 yil va h.k.

Tabiiy resurs davriyligidan (sikli) tashqari hozirgi paytda antropogen davriylik ham mavjud.

Bu davriylik insonning ishlab chiqarish faoliyati davomida resurslardan foydalanishi natijasida sodir bo'ladi. Antropogen davriylik tabiiy davriylikdan farq qilib ochiq bo'ladi va ko'plab miqdorda muhitga chiqindi chiqariladi. Masalan, inson tomonidan qazib olingan toshko'mir, turli xil rudalar qazib olingandan keyin qaytadan toshko'mir yoki ruda bo'lib o'z o'rniga qaytmaydi. Ishlab chiqarishning har bir bosqichida obyektiv yoki subyektiv sabablarga ko'ra, isrofgarchiliklar, chiqindilar muhitga tashlanadi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun ular klassifikasiya qilinadi. Klassifikasiya qilishning ko'plab prinsiplari bor.

Asosiylari 3 ta:

1. Aspektiga (foydalanish maqsadi) qarab klassifikasiya qilish. Iqtisodiy, tabiiy, tarbiyaviy, estetik, ilmiy va h.k. aspektlar.

2. Tarkibiy qismiga qarab klassifikasiya qilish. Tuproq, suv, havo, o'simlik, hayvon, qazilma boyliklari va x.k.

3. Resurslarni tugash va tugamasligiga qarab klassifikasiya qilish prinsipi.

Tabiiy resurslar tasnifi

Tugaydigan resurslar		Tugamaydigan resurslar
<i>Tiklanmaydigan resurslar</i>	<i>Tiklanadigan resurslar</i>	
Yer osti qazilmalari (ko'mir, neft, gaz, rudali va noruda qazilma boyliklari)	Tuproq, o'simlik, hayvonlar va suv resurslari	Kosmik resurslari, iqlim, suv resurslari [havo, suv resurslari, energiya (quyosh energiyasi, yadro, geotermal, shamol, to'lqin energiyalari) resurslari]

Qayta tiklanmaydigan resurslar – tabiiy resurslarning insonni xo'jalik ishlari tezligi bilan qiyoslanadigan darajadagi vaqt ichida biosferada sodir bo'ladigan modda almashinish jarayonlarida o'z – o'zidan tiklana olmaydigan qismi.

Tabiiy resurslar tasnifini bilish ulardan oqilona foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Suv va havo sifat jihatidan tugaydigan resurs hisoblanadi. O'simlik va xayvonlarni faqat ma'lum populyasiyasi saqlanib qolgan holdagina qayta tiklash mumkin. Yer osti qazilmalarini tiklanmasligini hisobga olib, ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Odatda, tabiiy resurslar real va potensial resurslarga ham bo'linadi. **Real resurslar** deb tabiatda mavjud resurslardan

to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkonini beradigan resurslarga aytiladi. Masalan, suv, havo, o'rmon va hakoza resurslar. **Potensial resurslar** esa tabiatdagi resurslarga qo'shimcha texnologiyalar, energiya, ishchi kuchi, mablag' sarf etish orqali real resurslarga aylantiriladi. Bunday resurs turlariga asosan yer osti qazilmalarini kiritish mumkin. Bulardan tashqari tabiiy resurslar milliy va xalqaro resurslarga ham ajratiladi. Milliy resurslarga har bir Davlat xududida tarqalgan resurslar kirib, ularga shu davlat egalik qiladi va ulardan turli maqsadlarda foydalaniladi va muhofaza qilinadi.

Dunyo, okean resurslari, atmosfera havosi, Antraktida tabiiy resurslari, kosmik fazo, kuchib yuruvchi hayvonlar umumjahon resurslar hisoblanadi. Ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish faqatgina xalqaro kelishuvlar asosida, turli mamlakatlar ishtrokidagina muvoffakiyatli amalga oshirilishi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy asoslangan yo'llarini ishlab chiqish mumkin.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bu insonlarning xo'jalik va boshqa faoliyatlarida tabiat boyliklaridan ularning qayta tiklanish qobiliyatini saqlash, modda va energiya almashuvining tabiiy kechuvini to'xtatmasdan, zahiralarining umumiy hajmini hisobga olgan holda samarali foydalanishdir. Tabiiy resurslardan foydalanish insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishning zaruriy jarayoni hisoblandi. Lekin, tabiiy ob'ektlarning resurs xususiyatlarini yo'qotib qo'ymaslik uchun qonun hujjatlari asosida turli foydalanish me'yorlari o'rnatiladi. Ular: chiqitlar yig'ilishi (konsentrsiyalashuvi)ning eng yuqori me'yori; kimyoviy moddalarning son jihatdan eng yuqori ifloslanish me'yori va shu kabi me'yoriy ko'rsatkichlardir. Ushbu me'yordan ortiqcha foydalanish yoki atrof muhitni ifloslash huquqbuzarlik bo'lib hisoblanadi va tegishli yuridik javobgarlikka tortishga asos bo'la oladi.

Muhitning ifloslanishi

Ifloslanish – muhitga xos bo'lmagan fizikaviy, kimyoviy, informasion va biologik agent (omil) larning hosil bo'lishi yoki tashqaridan kiritilishi natijasida ularning konsentrsiyasini o'rganilayotgan vaqtda tabiiy holatda kuzatilgan ko'p yillik o'rtacha darajadan ortib ketishi va salbiy oqibatlarga olib kelishi. Eng fojiali antropogen ifloslanishga urushlar, ayniqsa atom va yadro bombalaridan foydalanishlarni ko'rsatish mumkin. Yoki, tirik organizmlarga, insonlarga, hayvonlarga va o'simliklar olamiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan miqdordagi qo'shiladigan qattik, gazsimon suyuq moddalar, mikroorganizmlar miqdori **ifloslanish** deb ataladi.

Antropogen ifloslanish – odamlarning xo'jalik faoliyati, ularning tabiiy ifloslanish tarkibi va intensivligiga bevosita yoki bilvosita ta'siri natijasida yuzaga keladigan ifloslanish.

Fizikaviy va ximiyaviy nuqtai nazaridan **ifloslanish** deb muhit tarkibiga yot bo'lgan yangi fizikaviy, kimyoviy va biologik agentlarning (element) kiritilishi yoki shu muhit tarkibini tashkil qiluvchi agentlarning (element) miqdorini oshib yoki kamayib ketishi natijasida muvozanatini buzilishiga aytiladi.

Kelib chiqishiga ko'ra ifloslanishlar ikki xil:

1. Tabiiy

2. Sun'iy, antropogen bo'lishi mumkin.

Tabiiy ifloslanish – tabiatning o'zida sodir bo'ladigan halokatli jarayonlarning (masalan, vulqon otilishi, yer qimirlashi, siklonlar va b.) yuzaga kelishidan ifloslanish. Bunday ifloslanishda odamlar ishtirok etmaydi.

Sun'iy (antropogen) ifloslanishlar inson tomonidan uning ishlab chiqarish faoliyati natijasida sodir bo'ladi. Antropogen ifloslanishlar bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) va vositali (kim yoki nimalar orqali) yo'l bilan sodir bo'ladi.

Kelib chiqishidan qat'iy nazar xarakteriga ko'ra ifloslanishlar mexanik, fizik, kimyoviy va biologik ifloslanishlarga ajratiladi. Har qanday ifloslantirish o'z manbasiga, obyektiga (ekotip), qurbonlariga (biosenoz) va oqibatlariga ega bo'ladi. Ushbu bosqichlarga qarshi qanchalik oldinroq kurash boshlansa shunchalik tezroq muammo ijobiy hal bo'ladi.

Biologik ifloslanish – 1. Muhitga insonlar uchun salbiy ta'sir etadigan, nomaqbul organizmlarni kirishi va ko'payishi. 2. Muhitning mikroorganizmlar bilan ifloslanishi. Bunday ifloslanish bakteriologik ifloslanish deb ham yuritiladi.

Fizikaviy ifloslantirish - muhitning harorati, energetik, to'lqin, radioaktivligi va boshqa fizik xossalarning me'yoridan chetlashishini xarakterlovchi ifloslanishi.

Kimyoviy ifloslanish – atmosferaning tabiiy kimyoviy xossalarni o'zgarishi yoki muhitga kimyoviy moddalarning tushishi natijasida atrof – muhitning ifloslanishi. Kimyoviy ifloslanish qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligiga pestisidlar va mineral o'g'itlarni qo'llash, sanoat muassasalari, transport tomonidan zaharli moddalarni chiqarishi hisobiga ham yuzaga keladi.

Mexanikaviy ifloslantirish – fizikaviy va kimyoviy ta'sirlarsiz, faqat mexanik ta'sirlardan iborat agentlar bilan muhitning ifloslantirilishi.

Radiasion ifloslanish – ionlashtiruvchi nurlanishlar ta'sirida yuzaga keladigan ifloslanish.

Radioaktiv ifloslanish – fizikaviy ifloslanishning bitta shakli bo'lib, muhitda radioaktiv moddalarning miqdori tabiiy holatdagidan ortib ketishi natijasida yuzaga keladigan ifloslanish.

Qishloq xo'jaligi ta'sirida ifloslanish – qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan antropogen ifloslanish. Qishloq xo'jaligida pestisidlar, fungisidlar,

defolyantlar va boshqalarni qo'llash, yerga madaniy o'simliklar o'zlashtira olmaydigan miqdorda o'g'itlarni solish, chorvachilik chiqindilarini tashlash va boshqalarni qo'llash natijasida yuzaga keladigan ifloslanish.

Og'ir metallar bilan ifloslanish – yer sirtida qo'rg'oshin, simob, kadmiy va boshqa og'ir metallarning mahalliy (lokal), mintaqaviy va global to'planish jarayoni.

Ifloslantiruvchi – ko'rilayotgan davrda o'rtacha tabiiy fondan ortiq bo'lgan va atrof – muhitga tushayotgan yoki uning o'zida hosil bo'layotgan har qanday (tabiiy va antropogen) fizikaviy va axborot agentlari, kimyoviy modda va biologik tur (asosan mikroorganizmlar), ya'ni ifloslantiruvchi moddalar.